
"Open byudjet" loyihasi doirasida bunyod etilgan tuman davlat arxivining yangi binosi ochilish marosimi o'tkazildi

👉 O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida aholini byudjet mablag'larini taqsimlash jarayoniga jalb etish hamda aholi va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida konstruktiv muloqot o'rnatish va ochiq maydonchalarni tashkil etish orqali ularning fuqarolik jamiyati hayotidagi ishtirokini faollashtirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu fuqarolar manfaati va jamoatchilik nazoratining ta'sirchan mexanizmlari asosida byudjet mablag'laridan samarali foydalanish vositasidir.

👉 Aholi Openbudget.uz platformasi orqali mahallasi, aholi punkti va tumanidagi u yoki bu ijtimoiy muammoni hal etish bo'yicha o'z takliflarini faol bildirmoqda. Eng ko'p ovoz olgan tashabbuslar moliyalashtirilib, aholi muammolarining manzilli yechim topishiga xizmat qilmoqda. Muhimi aholi byudjet taqsimotida ishtirok etib, o'zi yashayotgan hududdagi muammoni hal etish imkoniyati yaratildi. Rishton tumanida ham tashabbusli byudjet asosida olib borilayotgan ishlar hudud ijtimoiy va iqtisodiy holatini yanada mustahkamlashga xizmat qilayotgani quvonarlidir. Bugun Respublika arxivlari ichida birinchi bor "Open byudjet" loyihasi doirasida qo'lga kiritilgan 400 mln so'm mablag' evaziga bunyod etilgan Rishton tuman davlat arxivining yangi binosi ochilish marosimi o'tkazildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi direktori Ulug'bek Yusupov, viloyat va Rishton tuman hokimligi mutasaddilari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etishdi. - Arxivlar xalqimiz hayotida muhim o'rin tutadi, - dedi "O'zarxiv" agentligi direktori Ulug'bek Yusupov. - Chunki, tariximizni o'rganmay, bilmay turib yangichasiga yashashni, hayot tarzimizni o'zgartirishimizni, zamonga, buyuk ajdodlarimizga mos avlodni tarbiyalashimizni amalga oshirish qiyin bo'ladi. Yurtimizda arxiv ishi tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar arxiv ishi va ish yuritish sohasini takomillashtirishga, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Sohaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanayotgani davlat arxivlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga, arxiv hujjatlarini kelajak avlod uchun asrab-avaylashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tadbir davomida "O'zarxiv" agentligi direktori Ulug'bek Yusupov tomonidan viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi tizimi faoliyat olib borayotgan bir guruh xodimlar "O'zarxiv" agentligi direktorining "Tashakkurnoma"si bilan taqdirlandilar. Shuningdek, agentlik direktori ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 noyabr kungi Farmoni bilan ta'sis yetilgan "O'zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi" esdalik nishoni bilan taqdirlangan xodimlarga ko'krak nishonlari tantanali ravishda topshirildi. Mazkur davlat arxivi binosi tumanimiz ahliga, jamiyatimizga ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

2022-12-16 13:48:19